



**OSIYO
TEKNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**



IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



№6-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 153 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekiston respublikasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri.....	10
Raxmonov Lochin To'xtamishovich	
Orol dengizi mintaqasida cho'llanishni bartaraf etishning barqaror usuli: tabiiy ofat turizmi platformasidan foydalanish.....	14
Axunjonov Umidjon Mahamadumarovich	
Specific tasks of effective information and communication technologies management in the digital economy.....	23
Saatova Lolakhon Ergashevna	
Chuqur o'rganishga asoslangan moliyaviy firibgarlikni aniqlash uchun yondashuvlar.....	27
Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
AI va big data yordamida sanoat korxonalarida moliyaviy monitoring va budget nazoratini avtomatlashtirish.....	37
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ro'li.....	44
Ismatov Zokir Xuvaytovich	
Tijorat banklari moliyaviy boshqarish tizimi samaradorligini takomillashtirish strategiyasi.....	48
Kadirov Lutfullo Xalimovich, Elboboyev Hamid Fozil O'g'li	
Ta'lim jarayonini 3d texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bosqichlari.....	52
Xushbaqov Eshpo'lat Alisherovich, Axmedova Asal Azimjon qizi	
Biosignallarni qayta ishlashda su'niy intellektga asoslangan bashoratlash.....	57
Qarshiyeva Jamila Yashnar qizi	
Shamol dvigatellaridan qurg'oqchil hududlarda foydalanish.....	60
Samadiy Khusrov Abdusalimzoda	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediali ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari.....	65
Sodiqova Umida Uchqun qizi	
Совершенствование и внедрение в практику методики когнитивного моделирования, направленной на решение педагогических задач учащихся с помощью современных информационных технологий (ИИ, VR, тренажеры, интеллектуальные системы).....	72
Турсунова Севара Юсуф кизи	
Yashil iqtisodiyot va uni barqaror rivojlantirish.....	78
Anvarjon Barnoyev	
Modern Mechanisms for Improving the Quality of Financial Control.....	81
Umirzoq Rakhmonov	
Zamonaviy o'qitish strategiyasi va metodlari: dasturlashni o'rganish uchun muhitlar.....	83
Mamatova Shirin Faxriyevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
Raqamli iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishga ta'siri: o'zbekiston misolida.....	92
Saydali Murodullayev	
O'zbekiston universitetlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro dasturlar va hamkorlik.....	98
Berdiyeva Gulandon Sa'dullayevna	
Образование в цифровую эпоху: возможности модели «перевернутый класс».....	101
Мирзаев Сунмас Амирович	
Pedagogik mahoratni oshirishda sun'iy intellektni texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonini takomillashtiradigan platforma ishlab chiqish.....	105
Salomov Shokirjon Jalilovich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
Algorithms and software for automatic spelling and grammatical editing of uzbek words.....	114
Daminov Sunatullo Furqat ugli, Eshkarayeva Narkhol G'uzarovna, Boymurodov Farrukh Farkhod ugli	
Innovatsion ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim sifatini oshirish.....	120
Mirzayeva Nilufar Fozilovna	
Kompyuter fanini o'quvchilarning loyihalarni o'qitish jarayonida soft ko'naklarni o'rnatish.....	124
Boboyev Shavkat To'rayevich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	



Kompyuter arxitekturasini o'rganishni takomillashtirishda mobil o'yinli metod dasturlaridan foydalanish.....	135
Muxammadiyeva Nargiza Boxodir qizi, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
Yosh dasturchilarning skratch dasturlash tili ko'nikmalariga elektron ta'lim platformasidan foydalanish bo'yicha dasturlash ko'nikmalariga ta'siri va dasturlashni o'rgatishga munosabat	143
Turdiyeva Umida Elmirzayevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOYIY TA'SIRI

Raxmonov Lochin To'xtamishovich

Osiyo texnologiyalar universiteti rektori
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Yashil investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqotda xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitidagi amaliy misollar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik siyosat.

Abstract: This article analyzes the impact of the green economy on the country's macroeconomic indicators. The interrelation between sustainable development, ecological balance, and economic growth is examined. The possibilities of achieving macroeconomic stability through green investments, the use of renewable energy sources, and environmental protection are substantiated. The study includes international experience and practical examples specific to Uzbekistan.

Key words: green economy, macroeconomic indicators, sustainable development, green investments, renewable energy, environmental policy.

Аннотация: В статье анализируется влияние зелёной экономики на макроэкономические показатели страны. Рассматривается взаимосвязь между устойчивым развитием, экологическим балансом и экономическим ростом. Обоснованы возможности достижения макроэкономической стабильности посредством зелёных инвестиций, использования возобновляемых источников энергии и охраны окружающей среды. В исследовании приведён международный опыт и практические примеры на примере Узбекистана.

Ключевые слова: зелёная экономика, макроэкономические показатели, устойчивое развитие, зелёные инвестиции, возобновляемая энергия, экологическая политика.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida ekologik barqarorlik masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitga salbiy ta'sirning kuchayishi natijasida an'anaviy iqtisodiy o'sish modelining zaif tomonlari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu boisdan ham, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy paradigmalari, jumladan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global va milliy darajalarda alohida e'tibor markaziga aylangan.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy faoliyatning ekologik xavfsiz, resurslarni tejovchi va uglerod chiqindilarini minimallashtiruvchi yangi modeli bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini, balki atrof-muhit muhofazasini ham ta'minlashga qaratilgan. Bunday yondashuv mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibi, bandlik darajasi, investitsiya oqimlari, energetika siyosati va eksport-import operatsiyalari kabi asosiy ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi.



O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, 2019–2023-yillar davomida qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi”, shuningdek, Prezident qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonligi va ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilish orqali uning amaliy natijalari, mavjud muammolari va rivojlanish istiqbollari yoritiladi. Tadqiqotda xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitidagi amaliy ko'rsatkichlar asosida chuqur tahlil olib boriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi O'zbekiston ilmiy hamjamiyatida ham so'nggi yillarda faol tadqiq etilmoqda. Iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlashda ekologik omillarni hisobga olish zaruriyati bo'yicha Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan siyosiy tashabbuslar yashil iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi.

Xamdamov A.S. yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini tahlil qilib, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatning dolzarbligini asoslagan. U resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

To'xtayev B.T. o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotga o'tishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining salohiyatini chuqur tahlil qiladi. Jumladan, O'zbekiston sharoitida quyosh va shamol energetikasidan foydalanish imkoniyatlari iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Saidov A.X. va Mustafuqulov M.Q. tomonidan olib borilgan izlanishlarda yashil iqtisodiyotning huquqiy va institutsional asoslari o'rganiladi. Xususan, davlatning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish orqali ekologik talablarni iqtisodiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish yo'llari tahlil qilinadi.

Shuningdek, Rustamov B.X. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning makroiqtisodiy samaradorligini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilgan. Uning fikricha, yashil investitsiyalar nafaqat YAIM o'sishiga, balki bandlik, innovatsion rivojlanish va energetik xavfsizlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahmudov Sh.X. suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi sektorida yashil iqtisodiyot tamoyillarini kengaytirish muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 4-oktabrda “2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-sonli qaror mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning asosiy huquqiy hujjati sifatida alohida o'rin tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va BMTning rasmiy hisobotlaridan olindi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil, komparativ tahlil va dinamik qiyoslash usullari yordamida qayta ishlanib, yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilgan investitsiyalar, resurs tejamkor texnologiyalar joriy etilishi, ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish tizimlari va chiqindilarni qayta ishlash sohasidagi ko'rsatkichlar chuqur tahlil qilindi. 2020–2023-yillar davomida quyosh va shamol energetikasi loyihalariga qaratilgan sarmoya hajmi oshdi. Xususan, ushbu yillarda quyosh energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari yiliga o'rtacha 25 foizga kengaydi. Bu esa import energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojni qisqartirdi va energiya mustaqilligini oshirishga xizmat qildi.

Sanoat tarmoqlarida ham yashil texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, mahsulot tannarxini pasaytirishga yordam berdi. Resurs tejamkor uskunalar, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va ekologik monitoring texnologiyalari qo'llanilishi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirdi. Masalan, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida chiqindilarni qayta ishlash darajasi 2019-yilgi 15 foizdan 2023-yilda 30 foizgacha ko'tarildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 4-oktabrda “2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-sonli qaror: <https://lex.uz/docs/-4539502>



Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Ayniqsa, paxtachilik va bog'dorchilik sohaslarida tomchilatib sug'orish tizimlari sug'oriladigan maydonlarning hosildorligini 12–15 foizga oshirdi. Bu esa umumiy qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Yashil iqtisodiyot doirasidagi islohotlar bandlik darajasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi ish o'rinlari asosan qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik monitoring va energiya samaradorligi sohaslarida yaratilmoqda. 2023-yilda yashil iqtisodiyot sektori hisobidan mamlakat bo'yicha 15 mingdan ortiq yangi ish o'рни yaratilgan.

Quyidagi jadvalda asosiy ko'rsatkichlar o'zgarishi umumlashtirilgan:

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2023-yil	O'sish sur'ati (%)
Quyosh energiyasi ishlab chiqarish (mln kVt/soat)	350	620	77
Shamol energiyasi ishlab chiqarish (mln kVt/soat)	40	120	200
Chiqindilarni qayta ishlash darajasi (%)	15	30	100
Suv tejash texnologiyasi joriy etilgan maydon (ming ga)	50	110	120
Yashil iqtisodiyot sohasida yaratilgan ish o'rinlari (ming)	5	15	200

Yuqoridagi natijalar O'zbekiston iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot modelining bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu yo'nalishda moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilg'or xalqaro tajribani moslashtirish istiqboldagi asosiy vazifalar sifatida qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotning O'zbekiston makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish natijasida ushbu yondashuv mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim omilga aylanib borayotgani aniqlangan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarning oshishi, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash hajmining ko'payishi va suv tejash texnologiyalarining keng qo'llanilishi iqtisodiy samaradorlik, bandlik va eksport salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik natijalar ushbu islohotlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganini ko'rsatmoqda.

Biroq, yashil iqtisodiyotning yanada samarali rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadida yashil obligatsiyalar va xalqaro grantlar mexanizmlaridan keng foydalanish;
- innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ekologik samarador ishlab chiqarish usullarini joriy etish;
- iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish va shaffoflikni oshirish;
- aholining ekologik savodxonligini oshirish va yashil iste'mol madaniyatini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;
- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va ilg'or xalqaro tajribalarni moslashtirish orqali institutsional salohiyatni mustahkamlash.

Mazkur takliflar O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini yanada jadallashtirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xamdamov A.S. Yashil iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. To'xtayev B.T. Qayta tiklanuvchi energiya va yashil iqtisodiyot rivoji. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti nashriyoti, 2021.
3. Saidov A.X., Mustafoqulov M.Q. Yashil iqtisodiyot va huquqiy asoslar. Toshkent: Huquq va iqtisodiyot, 2020.
4. Rustamov B.X. Yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy samaradorligi: O'zbekiston tajribasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
5. Mahmudov Sh.X. Suv tejovchi texnologiyalar va yashil iqtisodiyot. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida. 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son.



7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Rasmiy hisobotlar, 2020–2023-yillar.
8. Jahon banki. Green Growth Opportunities for Uzbekistan. Washington, 2021.
9. Xalqaro valyuta jamg'armasi. Fiscal Policies for Green Transition in Central Asia. IMF Report, 2022.
10. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi, 2019.
11. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Green Growth Indicators. Paris, 2020.
12. United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (UNESCAP). Low Carbon Green Growth Roadmap for Asia and the Pacific. Bangkok, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
